



TARAKKIYAT TADQIQOTLARI | ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ DEVELOPMENT STUDIES

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНЛАР | НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КОНФЕРЕНЦИИ
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCES

Volume II, Issue-21, (September) 2024

Journal homepage: <https://inashr.uz/index.php/rid>

XUSHVAQTOVA Shahrizoda O'ktam qizi

*O'zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi
magistranti*

O'ZBEKISTONDA PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Hozirgi paytda pensiya ta'minoti tizimi eng muhim ijtimoiy himoya institutlaridan biri hisoblanadi. Uning samarali faoliyat yuritishi mamlakatimizning ijtimoiy farovonligi darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababdan mamlakatimizda istiqboldagi demografik va makroiqtisodiy holatining o'zgarishlarini inobatga olgan holda pensiya tizimini takomillashtirib borish, pensiya tizimining nodavlat shakllarini rivojlantirishga shart-sharoitlar yaratish, pensiya jamg'armasi mablag'laridan samarali foydalanish, maqsadga muvofiqdir.

O'zbekistonda ham pensiya islohotlari boshlangan bo'lib, asosiy masala pensiya miqdorlarini indeksatsiyalash, jumladan minimal pensiya miqdorlarini minimal iste'mol xarajatlariga tenglashtirish, pensiya hisoblash uchun hisobga olinadigan o'rtacha oylik ish haqi miqdorini oshirish orqali pensiya hisoblash mexanizmini takomillashtirish, ko'p darajali pensiya tizimiga o'tish hamda pensiya sohasini raqamlashtirishga qaratilmoqda.

Dunyoda o'rtacha umr ko'rish yoshining o'sib borayotganligi, o'rtacha pensiya yoshining yuqoriligiga qaramasdan pensiya yoshini oshirish masalasi islohotlarda zarur chora sifatida ko'rilmayapti. Pensiyalarni hisoblashda mehnat stajiga e'tibor qaratish va pensiya yoshini belgilash bo'yicha mamlakatga xos va mos bo'lgan xorij tajribalarini o'rganish va amalda qo'llash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Pensiya ta'minoti bugungi kunda har qanday demokratik davlatda yashovchi insonlarning ajralmas huquqi hisoblanadi. Ammo turli davlatlar pensiya tizimlari bir biridan o'ziga xosliklari bilan ajralib turadi. Davlat pensiya ta'minotini takomillashtirishda kopinga xorij tajribalari asos bo'ladi. Mamlakatimizda iqtisodiy islohatlarning chuqurlashuvi bilan birga, iqtisodiy islohatlarda pensiya tizimini isloh qilish ham muhim ahamiyatga egadir.

Shuningdek, Pensiya jamg'armasi daromadlarini shakllantirish va ulardan foydalanish borasidagi muammolarning qisman bo'lsada mavjudligi uni isloh qilishning zarur ekanligini ko'rsatadi. Ushbu mavjud muammolarni hal etishda jahonning rivojlangan mamlakatlari o'zining pensiya tizimini isloh etishda to'plangan ilg'or tajribalarini aniqlash hamda uni amaliyotimizda qollashimiz muhim hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, mamlakatdagi samarali ijtimoiy ta'minot tizimi ba'zi vujudga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy muammolarning oldini oladi.

Shu o'rinda Rossiya Federatsiyasining pensiya tizimiga e'tibor bersak: Rossiya Federatsiyasi pensiya fondi turli xil pensiya turlarini o'z ichiga oladi, o'zining 42.5 milliondan ortiq fuqarolarini va undan tashqari Rossiya fuqarosi bo'lgan dunyoning qariyb 121 dan ortiq mamlakatlarining 270,000 dan ortiq rezidentlarini ijtimoiy to'lovlar bilan ta'minlaydi [1].

Hozirgi kunda Rossiya Federatsiyasida quyidagi pensiya turlari amal qiladi:

- sug‘urtaviy pensiyalar (ularning 3 turi mavjud bo‘lib: qarilik; nogironlik va boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalari);
- davlat pensiyalari bu pensiyalar 4 turdagi pensiyani o‘z ichiga oladi: uzoq xizmat qilganligi uchun beriladigan pensiya bu federal xizmatchilarga pensiyalar sinovchi uchuvchilariga, xizmatchilarga va kosmonavtlarga beriladigan pensiya turi, beriladigan pensiya turi, qarilik, nogironlik va boquvchisini yo‘qotgan, ka‘m ta‘minlanganlar uchun beriladigan pensiyalar;
- ijtimoiy nafaqalar;
- jamg‘arib boriladigan pensiyalar.

Yana bir rivojlangan mamlakat Yaponiya pensiya tizimi bugungi kunda dunyo bo‘yicha o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bugungi kunda Yaponiyada aholi qarishi sharoitida pensiya to‘lovlari miqdorining jadal oshib borishi va past darajadagi soliq bazasi sharoitida davlat qarzining oshishi pensiya tizimini isloh etishning dolzarbligini kuchaytirmoqda. Pensiya tizimi barqarorligining “Allianz” indeksi bo‘yicha Yaponiya 2016-yilda 54 mamlakat tarkibida 46-o‘rinni egalladi va pensiya tizimini isloh etishi zaruriyati yuqori bo‘lgan mamlakatlar qatoridan joy oldi.

Yaponiya xukumati pensiya tizimini isloh qilishning quyidagi yo‘nalishlarini ko‘rib chiqmoqda: pensiya yoshini oshirish, qoplash koeffitsientini kamaytirish va pensiya badallari stavkasini oshirish. Yaponiyada umr davomiyligi va pensiya yoshi o‘rtasidagi farq boshqa davlatlarda nisbatan yuqoridir. Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi 2030 –yilga borib ayollar uchun 89,4 yosh, erkaklar uchun esa 82,4 yoshga yetishi kutilmoqda [2].

Milliy pensiya dasturi pensionerlari uchun 2000-2030 yillar davomida agar pensiya yoshi 65 yoshda o‘zgarishsiz qolsa, pensiya yoshida kutilayotgan umr davomiyligi 4 yilga ortishi qutilmoqda. Kasbiy pensiya dasturida ushbu ko‘rsatkich pensiya yoshining muntazam oshirib borilishi tufayli 2030-yilga kelib milliy pensiya tizimidagi ko‘rsatkich bilan teng bo‘lishi kutilmoqda. Pensiyaga chiqish yoshini oshirish ishchi kuchining keksa ishchilar xisobiga ortishi va daromadlarning oshishi hisobiga iste‘mol xarajatlari ortishi tufayli uzoq muddatli davrda iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Pensiya yoshini oshirish soliq yukining yosh va keksa avlod o‘rtasida nisbatan adolatliroq taqsimlanishiga olib keladi.

Ushbu islohat pensiya badallarini kamaytirish xisobiga ish beruvchilarning ishchi kuchiga bo‘lgan xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi va uy xo‘jaliklarining ixtiyoridagi daromadlarini oshiradi.

Bundan tashqari, xususiy sektorda shaxsiy sug‘urtaga asoslangan ixtiyoriy pensiya ta‘minoti mavjud. Islohotlarning dastlabki bosqichida AQSh, Germaniya, Yaponiya va Italiyada pensiya tizimining daromadlarini oshirish maqsadida pensiya badallarini oshirishga harakat qilishdi. Bu esa, ishlovchilar va tadbirkorlarning qattiq noroziligiga sabab bo‘ldi. Muvaffaqiyatli pensiya ta‘minoti islohotlari Buyuk Britaniya va Shvetsiyada amalga oshirildi. Ushbu ikkala mamlakat o‘zlarining pensiya tizimlarining sezilarli qismini jamg‘arilish tamoyillari asosida qayta tashkil qildilar.

Jaxondagi rivojlangan mamlakatlarda pensiya tizimlarini isloh qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar, umuman olganda, extiyotkorlik bilan astasekin, muhim tarkibiy o‘zgartirish o‘rniga, ko‘prok parametrik tuzatishlar ko‘rinishida o‘tkazilmoqda. Ammo shunga qaramay, uni o‘tkazishda muayyan qiyinchiliklar ham uchramoqda. Masalan, pensiya yoshini ko‘tarish va qariyalar mexnat faoliyatini rag‘batlantirish ishsizlik darajasi past bo‘lganidagina ma’noga ega bo‘ladi, ayni paytda jamg‘arib borish tamoyillarini joriy etish faqat pensiya jamg‘armalari oqilona investitsiya qilingandagina foyda keltirishi mumkin (masalan, bu mablag‘lar davlat qarzi yoki byudjet defitsitiga emas, ishlab chiqarish investitsiyalarini moliyalashga yo‘naltirilganda).

Farb mamlakatlarida pensiya 55 tizimlarini isloh qilishdagi extiyotkorlik va tadrijiylikning sababi shundaki, bu sohadagi xar qanday qat'iy xarakterlar jamoatchilik tomonidan ma'qullanmasligi mumkin, chunki islohotlar pensiya sug'urtasining ijtimoiy xajmidagi va ijtimoiy adolat kabi tub tamoyillarini qayta ko'rib chiqishga olib keladi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, pensiya tizimini takomillashtirish mehnatga haq to'lash, soliq tizimi, mehnat bozorining holati va moliya bozori bilan uzviy bog'liq muammo hisoblanadi. Ushbu muammoni mamlaktdagi demografik vaziyat, ishsizlik, mamlakat aholisi tabiiy o'sishi va o'rtacha yashash yoshining ortishi bilan bog'liq bo'lgan masalalardan ajratib hal etib bo'lmaydi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgan kundan boshlab ijtimoiy ta'minot tizimini ishlab chiqishga kirishildi, ijtimoiy himoya davlatimizning ichki siyosatining asosiy tamoyillaridan biri qilib belgilandi, chunki bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tib borar ekanmiz, aholini kam ta'minlangan, muhtoj qatlamini ijtimoiy himoyalash va kafolatlash zarur.

Pensiya jamg'armasi byudjetining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun pensiya tizimini moliyalashtirish borasida quyidagi muammolarni hal etish lozim:

- bog'liqlik koeffitsienti pastligi.

Ijtimoiy xavfsizlik talablaridan kelib chiqqan holda bog'liqlik koeffitsienti 40 foizdan kam bo'lishi kerak emas, aks holda minimal yashash darajasi kafolatlanmaydi.

- aholi tarkibida nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarining yuqoriligi. Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda aholi tarkibida nogironlar ulushi yuqori bo'lgani uchun har beshinchi pensiya tayinlanishi nogironlarga, har o'n ikkinchi pensiya esa boquvchisini yo'qotganlik uchun tayinlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jumaniyozov, I. (2018). Impact of Development Finance Institutions on Economic Growth: Implications for Reconstruction and Development Fund of Uzbekistan. *International Journal of Management Science and Business Administration*, 4(2), 84-88.
2. A.V. Vaxobov, Sh.X. Xajibakiyev, B.B. Baxtiyorov, "Pensiyatiziminirivojlantirishningxoriijtajribasi". "Iqtisod-Moliya" 2018.